

TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Bosimova Mahliyo Dilshod qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang'inch ta'lism fakulteti 1-bosqich talabasi

Olloqulova Farzona Umedillayevna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyoqarash mohiyati va uning turlari, dunyoqarash va umummadaniy dunyoqarash tamoyillari, ta'lism va tarbiya jarayonida dunyoqarashni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, ta'lism, tarbiya, axborot texnologiyalari

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari bevosita uzlusiz ta'lism tizimi bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lism sharoitida bo'lajak mutaxassislarda bilimlarini mustaqil egallash va muammoni mustaqil ravishda hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlarini ham shakllantirish kerak. Buning uchun yoshlarning ilmiy va umummadaniy dunyoqarashini rivojlantirish lozim. Dunyoqarash-inson o'zini va tevarak atrofni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, xulosa chiqarishi, insonning o'ziga va uni qurshab turgan borliqqa bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan ko'nikmalar, malakalari, bilimlari hamda dunyonи amaliy va nazariy o'zlashtirishdir. Umummadaniy dunyoqarash esa falsafiy dunyoqarashning tarkibiy qismi sanaladi.

Ta'lism oluvchilarni mustaqil va ijodiy yondashgan holda muammollarni yechimini izlash, topish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faol ta'lism metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Dunyoqarash-insonning cheksiz bilimi desak bo‘ladi. Dunyoning oddiy umumlashtirilgan holda aks ettirilishi emas, balki insonning amaliy qayta o‘zlashtirish natijasi sifatidagi bilimlaridir. Dunyoqarash olamni eng umumiylar tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdan iboratdir. Shu ma’noda dunyoqarash har qanday ijtimoiytarixiy mohiyat kasb etib, kishilarining umri, faoliyati, hayoti, tabiatga ta’siri va mehnat jarayonida vujudga keladi. Dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiytarbiya ta’sirida shakllanadi. Dunyoqarash bilim, g‘oya va maqsad, fan yutuqlari, diniy tasavvurlari, qadriyatlar, ishonch, e’tiqod, fikr va hissiyot kabi tarbikiy tuzilmalardan iborat.

Umummadaniy dunyoqarashga to‘xtalib o‘tsak uni shakllantirishda e’tiqod muhim ahamiyatga ega. E’tiqod insonning o‘z qarashlari va g‘oyalarining to‘g‘riligiga, orzu-umidlarning asosliligiga, xatti-harakatlarning umumiylar maqsad va talabalarga mosligiga chuqur ishonchi asosida paydo bo‘ladi. Umummanadiy dunyoqarash yuzasida so‘z yuritganda madaniyat tushunchasiga izoh berib ketish joizdir. Jamiyat taraqqiyotida, xususan, barkamol shaxsni tarbiyasida madaniyat katta ahamiyat kasb etadi. Chunki madaniyat insonning iqtidori, salohiyati, qobiliyati va o‘zligini namoyon etib, uning bilimlari, ko‘nikma va tajribalarini, ma’naviy salohiyatini amaliy faoliyati orqali kamol toptirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: " Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namoyondalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni hozirgi yoshlarimizni ma’naviy tarbiyalashning asosi bo‘lmog‘i kerak" , - deb takidlagan edilar. Faylasuf olim J.Tulenov esa "Madaniyat ko‘p qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilgan barcha moddiy va ma’naviy yutuqlarning majmuidir", - deb ta’rif beradi. Haqiqatdan ham madaniyat shaxs tarbiyasida muhim o‘rin egallashi dunyo sivilizatsiyasi tajribasida o‘zini isbotlagan.

Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarning umummadaniy dunyoqarashini tarkib toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Ayniqsa oliy ta’limda yuqori darajali mutaxassislarini tayyolash sifatiga ta’sir etadi. O‘qitishda yoshlarning bilim olishga ishtiyoqini

uyg‘otish, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, muammolarni hal etish qobiliyatiga ega bo‘lish, jiddiy fikr yuritish, axborot texnologiyalarini qo‘llash yo‘llarini o‘rganish kabi talablarni o‘z ichiga oladi. Umummadiy dunyoqarashni shakllantirish texnologiyalari ham pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi:

1. Umummadaniy dunyoqarashni takomillashtirish, optimallashtirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Uning didaktik hamda tarbiyaviy xarakteri, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tarzda tashkil etishda nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi.
3. Umumadaniy dunyoqarash uning mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.
4. Pedagogik texnologiyalar umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.
5. Umumammadaniy dunyoqarashni shakllantirish texnologiyasiga yagona, qat’iy, me’yoriy talablar qo‘ymaydi.
6. Pedagogik texnologiyalar umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Demak, har qanday pedagogik texnologiya, jumladan umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiya hamda o‘zaro hamkorlik, muloqot, ularning bir-birlariga ta’sirlari eng zamonaviy talablarga javob bergen holda, o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillarini yaratishga qaratilgan.

Umummadaniy dunyoqarash aslida olingan bilimlarning e’tiqodga aylanishida tarkib topadi. O‘quvchi yoshlarda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlariga asoslangan holda, ta’lim-tarbiya jarayonining umumiyl ko‘rinishi, loyihasi tuziladi. Umummadaniy dunyoqarash pedagogika sohasida o‘zining ahamiyatiga ega bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Chunki aynan umummadaniy dunyoqarash pedagogik mahorat, pedagogik malakani tashkil etuvchi muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Zero taraqqiyot asrida yashar

ekamiz, har bir pedagog faqat o‘z kasbining ustasi bo‘lib qolmasdan, xalqining buyuk madaniy merosi haqida bilishi shu bilan bir qatorda boshqa millatlarning ham madaniyati, tili, dini, san’at, moddiy va madaniy merosi haqida oz bo‘lsada tushunchaga ega bo‘lishi, ularga hurmat bilan qarashi umummadaniy dunyoqarashning asosiy komponentlarini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karimov.I.A." Yuksak ma’naviyat asoslari"-T:Ma’naviyat.2008y.
2. Aleks Muur." Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika,ta’lim dasturi va tarbiya". Rutledj.2-nashr.2012 y.
3. Ollokulova F.U. VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, Sep., 2022
4. Ollokulova F.U. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini konsentrizm asosida shakllantirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyat. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 10 (2022) / ISSN 2181-1415
5. [SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA BORASIDAGI QARASHLARI](#)
MD qizi Bosimova, FU Olloqulova
INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. 1 (7), 149-153